

HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT

Nosirjonov Abdulaziz Sultonali o'g'li*O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining
Bojxona instituti, Bojxona ishi yo'nalishi 1-kurs, 525-guruh kursanti***Mirzakarimov Olimjon Otabek o'g'li***O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining
Bojxona instituti, Bojxona ishi yo'nalishi 1-kurs, 425-guruh kursanti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada huquqiy ongning shakllanish omillari, uning tarkibiy qismlari hamda rivojlanish bosqichlari shaxsiy tajriba va madaniy muhit bilan uzviy bog'liq holda yoritib beriladi. Shuningdek, huquqiy madaniyatning mazmuni, tarkibi, jamiyat a'zolarining huquqiy xulq-atvoriga ta'siri hamda uni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ta'lim, tarbiya va ommaviy axborot vositalarining huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, yutuqlar va muammolar misollar bilan ko'rsatib beriladi. Xulosa qismida esa huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish yo'llari hamda o'quvchilar va jamiyat uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Huquqiy ong, Huquqiy madaniyat, Huquqiy davlat, Fuqarolik jamiyati, Qonun ustuvorligi, Huquqiy bilim, Huquqiy me'yorlar, Fuqarolarning huquq va majburiyatlari, Huquqiy xulq-atvor, Ijtimoiy ong, Huquqiy ijodkorlik, Huquqiy qadriyatlar, Inson huquqlari, Adolat, Normativ-huquqiy hujjatlar, Milliy an'analar, Ta'lim, Oila, Jamiyat, Shaxsiy tajriba, Madaniy kontekst, Huquqiy nigilizm, Salbiy ong (ong aynishi), Axloqiy inqiroz, Huquqiy tarbiya, Huquqiy ta'lim, Ko'nikmalar, Demokratiya va oshkoralik, Fuqarolarning siyosiy faolligi, Davlat va jamiyat mas'uliyati.

Annotation. This article analyzes the content and essence of the concepts of legal consciousness and legal culture, their role in the life of society and their interrelationships from a scientific and theoretical perspective. The article highlights the factors of formation of legal consciousness, its components and stages of development in an inextricable link with personal experience and cultural environment. It also analyzes the content, structure of legal culture, its influence on the legal behavior of members of society and the mechanisms of its formation. The role of education, upbringing and the media in improving legal culture is emphasized. The article shows the interaction between legal consciousness and legal

culture with examples, achievements and problems. In the conclusion, ways of developing legal consciousness and legal culture are given, as well as practical recommendations for students and society.

Keywords: Legal consciousness, Legal culture, Rule of law, Civil society, Law supremacy, Legal knowledge, Legal norms, Citizens' rights and duties, Legal behavior, Social consciousness, Legal creativity, Legal values, Human rights, Justice, Normative-legal acts, National traditions, Education, Family, Society, Personal experience, Cultural context, Legal nihilism, Negative consciousness, Moral crisis, Legal education, Legal training, Skills, Democracy and transparency, Citizens' political activity, Responsibility of the state and society.

Аннотация. В данной статье анализируются содержание и сущность понятий правового сознания и правовой культуры, их роль в жизни общества и взаимосвязи с научно-теоретической точки зрения. В статье освещаются факторы формирования правового сознания, его компоненты и этапы развития в неразрывной связи с личным опытом и культурной средой. Также анализируются содержание и структура правовой культуры, её влияние на правовое поведение членов общества и механизмы её формирования. Подчеркивается роль образования, воспитания и средств массовой информации в совершенствовании правовой культуры. В статье показано взаимодействие правового сознания и правовой культуры на примерах, достижениях и проблемах. В заключении приводятся пути развития правового сознания и правовой культуры, а также практические рекомендации для студентов и общества.

Ключевые слова: Правовое сознание, Правовая культура, Правовое государство, Гражданское общество, Верховенство права, Правовые знания, Правовые нормы, Права и обязанности граждан, Правовое поведение, Социальное сознание, Правовое творчество, Правовые ценности, Права человека, Справедливость, Нормативно-правовые документы, Национальные традиции, Образование, Семья, Общество, Личный опыт, Культурный контекст, Правовой нигилизм, Негативное сознание (тошнота), Моральный кризис, Правовое образование, Правовые навыки, Демократия и прозрачность, Политическая деятельность граждан, Ответственность государства и общества.

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilayotgan hozirgi sharoitda huquqiy ong va huquqiy madaniyatga bo'lgan talab tobora ortmoqda. Huquqiy ong — bu shaxs yoki jamiyatning huquq, qonunlar, huquqiy meyorlar va adolat haqidagi bilimlari, qarashlari, his-tuyg'ulari hamda ularga bo'lgan munosabatlarining majmuasidir. Huquqiy madaniyat esa bu jamiyat va shaxsning huquqqa

bo‘lgan ongli munosabati, qonunlarni chuqur bilishi, ularga hurmat bilan qarashi hamda huquqiy meyorlarga muvofiq ravishda ongli va masuliyatli xulq-atvorni namoyon etish darajasini ifodalovchi ijtimoiy hodisadir. Huquqiy ong, bilim va madaniyatga ega bo‘lish jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e‘tiqodi, kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun g‘oyat katta ahamiyatga ega. «Har bir fuqaro, har bir inson o‘z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi shart. Toki, jamiyatning har qaysi a‘zosi o‘z huquqi, o‘z burchi va o‘z mas‘uliyatini yetarli darajada bilmas ekan, uni hayotiy omil sifatida anglamas ekan, bizning rivojlanish, yangilanish haqidagi jamiki so‘zlarimiz, sa’y-harakatlarimiz besamar ketaveradi».[1]

Binobarin, huquqiy ong ijtimoiy ong shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy ong esa jamiyatdagi kishilarning qarashlari, g‘oyalari, nazariyalari, his-tuyg‘ulari va an‘analari majmuidir. U ijtimoiy borliqni, ya’ni odamlarning moddiy hayot sharoitlarini aks ettiradi. Zero, «Odamning ijtimoiy hayotni tushunishi, his qilishi, unga munosabati uning ongida yuz beradi. Siyosiy ong, ijtimoiy ong iboralari ana shundan kelib chiqqandir. Voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o‘z ichiga olgan va albatta, ma’lum maqsadga yo‘nalgan holda aks etishi ongning ko‘rinishidir. Ong, shuningdek, kishining ruhiy, siyosiy, falsafiy nuqtai nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining ham majmui hisoblanadi. Ijtimoiy ong deganda ana shular nazarda tutiladi».[2] Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g‘oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta’riflash mumkin. Shuni alohida qayd etish joizki, huquqiy ongsiz huquqiy ijodkorlikni ham, huquqning o‘zini ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Albatta, bu fikrdan huquqiy ong huquqni yaratadi degan ma’no kelib chiqmaydi. Huquq huquqiy ong tarafidan emas, balki hayotdagi muayyan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar negizida yaratiladi. Huquqiy ong esa bu jarayonda faqat vositachi, yangi g‘oyalarning asosi vazifasini bajaradi.

Huquqiy ong – birmuncha mustaqil hodisa, uni huquq nazariyasining alohida ob’ekti sifatida o‘rganish kerak bo‘ladi. Aynan huquqiy ong orqali huquq nazariyasi huquqning mohiyati, uning kelib chiqishi, muayyan sivilizatsiya doirasida huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyati, huquqiy xulq-atvorning buzilishi, jinoyatchilik va boshqa ijtimoiy xavfli illatlarning manbalari va sabablari kabi olamshumul muammolarni o‘rganadi, tahlil qiladi va tadqiq etadi. Yana shuni ham ta’kidlash lozimki, huquqiy ong har bir xalqning madaniyati, hayot tarzining tarkibiy qismi sifatida huquqning ma’naviy mohiyatini eng to‘la va har tomonlama aks ettiradi. Zero, sivilizatsiyaning turli ko‘rinishlarida, xilma-

xil madaniy-tarixiy hamjamiyatlarda xulq-atvor normalari, zarurat haqida, u yoki bu vaziyatlarni tartibga solish usullari va boshqalar to'g'risida xilma-xil, ko'pincha o'zaro jiddiy farqlanuvchi tasavvurlar mavjud bo'ladi. Huquqiy ong insonda tug'ma holda mavjud bo'lmaydi, u hayot davomida turli ijtimoiy omil va hodisalar ta'sirida shakllanadi. Bu jarayonda ta'lim, oila va jamiyat muhim o'rin egallaydi. Ta'lim huquqiy ongni shakllantirishning asosiy va tizimli omillaridan biridir. Ta'lim muassasalarida huquq asoslari, Konstitutsiya, fuqaroning huquq va majburiyatlari haqida beriladigan bilimlar shaxsda qonunlarga nisbatan ongli munosabatni rivojlantiradi. Maktab va oliy ta'limda huquqiy fanlarning o'qitilishi yoshlarning huquqiy bilimlarini oshiradi, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi va huquqiy mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Oila huquqiy ongning dastlabki shakllanish muhiti hisoblanadi. Oilada ota-onaning qonunlarga bo'lgan munosabati, huquqiy madaniyati va xulq-atvori farzandlar uchun namuna, tarbiya bo'lib xizmat qiladi. Agar oilada qonunlarga rioya qilish, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, adolatli bo'lish qadriyatlari ustuvor bo'lsa, bu bolada mustahkam huquqiy ong shakllanishiga zamin yaratadi. Jamiyat esa huquqiy ongni mustahkamlovchi va rivojlantiruvchi keng ijtimoiy muhit hisoblanadi. Insonlar orasida amal qilayotgan qonunlar, huquqiy tartibot, davlat organlari faoliyati, ommaviy axborot vositalari hamda jamoatchilik fikri shaxsning huquqqa bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qonun ustuvorligi ta'minlangan, adolatli jamiyatda yashayotgan insonda huquqiy ong yanada yuksaladi. Huquqiy ong inson hayoti davomida bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Bu jarayon shaxsning tajribasi hamda u yashayotgan jamiyatning madaniy konteksti bilan chambarchas bog'liqdir. Birinchi bosqich — boshlang'ich huquqiy ong bo'lib, u bolalik va o'smirlilik davrida shakllanadi. Bu davrda shaxs huquqiy bilimlarni asosan oila, maktab va kundalik hayotiy tajribalar orqali egallaydi. Qonun va qoidalar ko'proq "mumkin" yoki "mumkin emas" tushunchalari orqali anglanadi. Shaxsiy tajriba bu bosqichda muhim rol o'ynab, kattalarning xatti-harakatlari, jazolash va rag'batlantirish orqali huquqiy tasavvurlar shakllanadi. Ikkinchi bosqich — ongli va tizimli huquqiy ong bosqichi bo'lib, bu bosqichda shaxs huquqiy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishni boshlaydi, qonunlarning mazmuni va ahamiyatini tushunadi. O'z huquq va majburiyatlarini anglash shaxsiy tajriba asosida mustahkamlanadi. Ta'lim, ijtimoiy munosabatlar va jamiyatdagi huquqiy muhit bu jarayonga kuchli tasir ko'rsatadi. Uchinchi bosqich — yetuk huquqiy ong bosqichi hisoblanib, bu bosqichda shaxs huquqiy meyorlarni ichki etiqod sifatida qabul qiladi va qonunlarga ongli ravishda amal qiladi. Shaxsiy tajriba huquqiy qarashlarni mustahkamlaydi, madaniy kontekst esa adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlariga hurmat kabi qadriyatlarni shakllantiradi. Inson huquqiy masalalarda mustaqil fikr yuritishi oladi va huquqiy nizolarni qonuniy yo'l bilan hal etishga intiladi.

Madaniy kontekst ham huquqiy ong rivojida muhim ahamiyatga ega. Jamiyatning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari, an'analari va huquqiy madaniyati shaxsning huquqqa bo'lgan munosabatini belgilaydi. Qonun ustuvorligi va adolat qadrlanadigan jamiyatda huquqiy ong yanada tez suratlarda bilan samarali rivojlanadi.

Huquqiy madaniyat deganda esa, huquqiy bilim andazalari va uning tabiatini, huquqiy tizim bahosini, shuningdek, huquqiy xatti-harakatlar sohasini tartibga soluvchi ijtimoiy qadriyatlar, normalar, an'ana va andazalar mazmun-mohiyatini tushunish kerak. Huquqiy madaniyat tarkibiy xususiyatlari tahlil etilganda, uning nafaqat «gorizontal» kesimini, balki jamiyat (ijtimoiy qatlamlar, millatlar, mehnat jamoalari timsolida) ijtimoiy guruhlar – (ham fuqaro, ham mansabdor shaxs sifatida) shaxs munosabatlaridan iborat «vertikal» kesimini ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Huquqiy madaniyatni jamiyat hayoti tarkibiy qismlarining rivojlanish darajalari miqdoriy o'zgarishlarini integratsiyalash yo'li bilan umumiy holatni ochib beruvchi shu jamiyat hayotining aynan sifat holati deb ta'riflash uchun asos, dalil hisoblanadi. Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning oltinchi sessiyasida quyidagi so'zlar bejiz yangramagan edi: «Aholida inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish borasida yangi qadriyatlar va ko'nikmalarni shakllantirish, pirovard natijada esa inson huquqlariga hurmat - ehtiromni va ularga rioya etishni umummillat darajasida rivojlantirishga qaratilgan madaniyatni yuzaga keltirish g'oyat muhimdir. Biz odamlarning eskicha psixologiyasini o'zgartirib, ularda yangi huquqiy ongni shakllantirmog'imiz lozim. Shunday bo'lsinki, har bir kishi inson erkinliklari – ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va mas'uliyat ekanligini chuqur his etib tursin».[3]

Huquqiy madaniyat murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, u bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan normativlar, qadriyatlar va an'analar majmuasidan tashkil topadi. Ushbu tarkibiy qismlar jamiyatda qonuniylik, adolat va huquqiy tartibni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Normativlar huquqiy madaniyatning asosiy tayanchini tashkil etadi. Ular jamiyatda amal qilayotgan qonunlar, kodekslar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Normativlar fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va huquqiy xulq-atvor me'zonlarini aniqlab beradi. Huquqiy madaniyat darajasi ko'p jihatdan shaxsning ushbu normativlarni bilishi, tushunishi va ularga rioya qilishiga bog'liq. Qadriyatlar huquqiy madaniyatning ma'naviy-axloqiy asosini tashkil qiladi. Adolat, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, erkinlik, tenglik va mas'uliyat kabi qadriyatlar huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorning shakllanishida kuchli ta'sir aks etadi. Agar jamiyatda huquqiy qadriyatlar yuksak darajada e'tirof etilsa, fuqarolar qonunlarga nafaqat majburiyat sifatida, balki ichki ehtiyoj sifatida amal qiladilar. An'analar esa huquqiy madaniyatning tarixiy va madaniy jihatini ifodalaydi. Jamiyatda asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, milliy an'analar va huquqiy tajribalar huquqiy

madaniyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. An'analar huquqiy me'yorlarning qabul qilinishi va qo'llanilishiga yordam beradi, shuningdek, qonunlarning jamiyat tomonidan qabul qilinishini osonlashtiradi.

Marhum akademik Andrey Saxarov o'zining esdalik xatida 70-yillar sho'ro jamiyatining axloqiy holatiga juda aniq tavsif bergandi: «Jamiyatimiz loqaydlik, xushomadgo'ylik, meshchanlarcha xudbinlik, yashirin shafqatsizlik bilan zaharlangan. Uning yuqori qatlami – partiya-davlat boshqaruvi mahkamasi ziyolilarning rohatda yashayotgan oliy qatlami vakillarining ko'pchiligi o'zlarining oshkora va maxfiy imtiyozlariga mahkam yopishib olganlar hamda inson huquqlarining buzilishiga, taraqqiyot manfaatlariga, insoniyatning xavfsizligi va kelajagiga g'oyat befarqdirlar».[4]. Bunday sharoitda huquqiy nigilizmning va hatto salbiy ongning – ong aynishining keng tarqalmasligiga umid bog'lash qiyin edi. Ma'naviy sog'lomlashtirish uchun odamlarni xushomadgo'ylik va munofiqlikka boshlovchi shart-sharoitlarni barham toptirish zarur edi. Chunki bunday holat ularda ojizlik, qoniqmaslik va umidsizlik tuyg'ularini qaror toptirardi. Ustiga ustak, axloqiy, diniy, ilmiy ong sifatida huquqiy ong ham doimiy va oqilona rivojlanib, shakllanib borishga muhtoj bo'ladi. Qolaversa, jahon va milliy huquqiy madaniyat boyliklarini tashkil etuvchi siyosiy-huquqiy g'oyalar, normalar, tamoyillarni kishilar ongiga singdirishga yo'naltirgan chora-tadbirlar tizimi huquqiy tarbiya sifatida maydonga chiqadi. Endilikda shunday huquqiy tartibni ishlab chiqish, huquqiy madaniyatning shunday darajasiga erishish kerakki, unda qonunlarga rioya etish hamma uchun majburiy bo'lib, ularni buzish esa mutlaqo mumkin bo'lmay qolsin. Binobarin, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etish ko'p jihatdan yangi huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liqdir. Ma'lumki, huquqiy madaniyat darajasi qabul qilingan qonunlar soni va hatto ular sifati bilan ham emas, balki ularni og'ishmay bajarish bilan belgilanadi. Eng ajoyib qonun ham, agar u amalda bajarilmasa, hech qanday qiymatga ega bo'lolmaydi. Sh.Monteske o'z zamonasidayoq shunday deb yozgandi: «Qaysi bir mamlakatga o'tlanarkanman, men u yerdagi qonunlarning yaxshiligini emas, ular qanday amalga oshirilayotganini tekshiraman, chunki yaxshi qonunlar hamma yerda uchraydi».[5].

Ayni paytda huquqiy bilim berishni ta'lim muassasalarida maxsus huquqiy fanni o'qitish, shuningdek, maxsus ta'lim uslublarini qo'llash orqali amalga oshirish yaxshi samaralar beradi. Aytaylik, bu yerda huquqiy ta'lim-tarbiya oluvchilar nazorat va kurs ishlarini tayyorlash, normativ hujjatlar ustida mustaqil ish olib borish, yuridik ahamiyatga molik xatti-harakatlarni amalga oshirish, ta'lim muassasalarining boshqaruv organlari faoliyati da ishtirok etish jarayonlarida zarur bilim va ko'nikmalarni oladilar. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchi va talabalarga huquqiy bilim berishning muvaffaqiyati na faqat ta'lim sifati yoki o'qituvchilarning mahoratiga, balki jamiyat va davlatning huquqiy

madaniyati darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Zero, ta‘lim oluvchining amaldagi huquq, qonunchilikning haqiqiy holati bilan bevosita yuzma-yuz kelishi, uning inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda huquqning imkoniyatini baholay olishi kabi jihatlardan bog‘liq hayotiy tajribasi eng kuchli huquqiy-tarbiyaviy omillar hisoblanadi.

Qisqacha aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyat shunchaki qonunlarni bilish emas, balki ularga hayotiy ehtiyoj sifatida amal qilish ko‘nikmasidir. Huquqiy ong insonning qonunlar haqidagi tasavvuri bo‘lsa, huquqiy madaniyat ushbu tasavvurning amaldagi ifodasi, ya‘ni jamiyatning huquqiy yetuklik darajasini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. 2025-yilgi islohotlar va zamonaviy taraqqiyot bosqichida aholining, ayniqsa yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy shartiga aylandi. Zero, har bir fuqaro o‘z huquqlarini yaxshi bilsa va boshqalarning huquqlarini hurmat qilsa, jamiyatda adolat ustuvorligi va qonun ustunligi to‘liq qaror topadi. Binobarin, huquqiy madaniyatni yuksaltirish — davlatning barqaror rivojlanishi va inson qadrini ulug‘lashning eng mustahkam poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimov I.A. Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug‘. T., «O‘zbekiston», 1998, 59-bet.
- 2.Ibrohimov A., Sultonov H., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. T., «O‘zbekiston», 1996, 30-31-betlar.
- 3.Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom. T., «O‘zbekiston», 1997, 119-120-betlar.
- 4.Saxarov A.D. Posleslovie k Pamyatnoy zapiske. // Mir Progress. Prava cheloveka. L., 1990, 33-bet.
5. Monteske Sh. Izbr. Proizvedeniya. M., 1955, 318-bet.
- 6.Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi 2007 ,537-538,544-betlar